

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MUSTAQILLIK
YILLARIDAN KEYIN TA'LIM TIZIMIDA O'ZGARISHLAR**

Baqoyev Diyorbek Sherzod o'g'li

Toshkent shahridagi TSMR institute 3-bosqich talabasi 328-guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi maktab va oliy ta'lif tizimi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lif, maktab, ta'lif, O'zbekiston Respublikasi, mustaqillik.

1.Kirish

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lif soxasida jadal rivojlanishlar va o'zgarishlar bo'layotgani haqida bot-bot oynayi-jahon hamda telefonlarimizga kelayotgan yangiliklar orqali eshtib bormoqdamiz. Aslida ham shundaymi? Prezidentimiz tomonidan chiqarilayotgan qaror va qonunlar amaldagi ta'lif soxamizda ham ishga tushyaptimi? Mustaqilligimizdan keyin hozirgacha amalgaga oshirilgan qanday yangiliklar bizning ta'lif rivoji uchun foydali boldi? Aslida mamlakatimizda ta'lif soxasi rivoji uchun qanday qaror va qonunlar qabul qilindi? Shunday va shunga o'xshash savollar mamlakatimizda istiqomat qiluvchi ko'pgina insonlarimiz uchun qiziq tuyulishi mumkin. Va bu savollarga quydag'i maqolamizda toxtlamiz va mamlakatimizdagi ta'lif haqida biroz malumotga ega bolamiz.

2.Asosiy qism

O'zbekistonda ta'liddagi islohotlar va rivojlanish

Mustaqilligimizdan so'ng mamlakatimiz birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov tomonlaridan birinchi e'tiborga loyiq deb topilgan sohalardan biri bu albatta ta'lif bo'ldi. Bu o'zgarishlar ichiga maktab darsliklarida mavjud bolmagan yangi fanlar kiritilganligi, 12 yillik (9 yil maktabda, 3 yil kasb-hunar kollejida) bepul ta'lif, tamir talab muktab va oquv binolarining tamirlanishi va yamgilarini qurilishi, barcha maktablarga o'quv qurollari va laboratoriya anjomlari bilan ta'minlanishi va hokazolarni misol qilib aytishimiz mumkin. Bundan tashqari "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil, 11-martdagi "Respublika oliy o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limlariga qabul qilishni takomillashitirish to'g'risida"gi PF-361-sonli farmoniga asosan, mamlakatimizda mavjud oliy o'quv yurtlariga qobiliyatli yoshlarni tanlab olish tizmiga katta o'zgarishlar kiritildi. Dastlab respublikamizning 6 ta oliy ta'lif muassasasida test sinovi asosida o'qishga qabul qilish tajribadan o'tkazilgan bo'lib, oradan bir yil o'tib, bu ko'rsatkich 19 taga yetkazildi. 1994-yil 14-maydagi 258-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat test markazi tashkil etish to'g'risida"gi qarori bilan Oliy o'quv yurtlarining kunduzgi

bo‘limlariga abituriyentlar tanlash bo‘yicha Respublika markazi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markaziga aylantirildi. Davlat test markazi (DTM) asosiy vazifasi oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlariga test sinovlarini tashkil etish va o‘tkazish hisoblanadi.”(Manba: Tojiboyev. R 2016)

Shu bilan bir qatorda. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi N464-i qonuni, ta’lim sohasidaga barcha savollarga aniq oydinlik kiritdi. 34 ta moddadan iborat ushbu qaror, ta’lim jarayonining barcha jabhalarini qamrab olgan bo‘lib, o‘z o‘rnida barcha masalalar aniq va ravshan holda yoritilib berilgan. Jumladan 4-moddada yozilishicha: “Jinsi, tili, yoshi, irqi, milliy mansubligi, e’tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeい, turar joyi, O‘zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat’i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi” deyilgan bo‘lsa, 1997-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyolash milliy dasturi to‘grisida”gi qonuni qabul qilingan.

Aynan shu qarorlardan keyin 2016-yilgacha ta’lim sohasida deyarli katta islohotlar amalga oshmadi. 2016-yilda joriy prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich prezidentikka tayinlangandan keyin ham talimimizda yana bir qancha ozgarishlarni amalga oshirildi. Bular qatorida eng katta o‘zgarishlar kasb-hunar kollejlari qisqarib 9 yillik maktab yana 11 yillikka o‘zgardi. Oliy ta’lim (institute va universitet) larga kirish uchun kvotalar soni ko‘payib, shaxsiy universitet, maktab hamda mакtabgacha ta’lim muassasalariga imkoniyatlar berildi. O‘quv to’lovlarini to’lash uchun imtiyozli ta’lim kreditlari ajratildi va hokazo.

Maktabdagi bir qator muammolar hamda ularning yechimlari

Mamlakatimi o‘qitish tizimidagi eng muammolarga boy bo’lgan maktabgacha ta’lim va maktablar bo‘lib hisoblanadi. Hammaga malumki onda sonda qulog’imizga ta’lim vazirligi xodimlari tomonidan berilgan intervylarida “mamlakatimizda maktab va maktabgacha ta’lim sohalarida “Yaponiya”, “Finlandiya”, “Singapur” uslublarini yo’lga qo‘yayapmiz” degan xabalarni eshtamiz. Ammo bizda shu uslublar ish bermayotgani hech kimga sir emas. Yuqorida nomi tilga olingan mamlakatlar ham ushbu tizimlarni o‘zlarining resurslari, sharoiti, vaqt qisqa qilib aytganda makon va zamonga qarab yaratishgan va bu boshqa mamlakatlarda ham ish beradi degani emas.

Mamlakatimizdagi o‘qtuvchilarning 10% qismi oliy ma’lumotga ega bo’lmagan bo‘lsa qolgan qismi ham juda kam maoshga ishlashga majbur. “O‘zbekistondagi oylik o‘qtuvchilarning oylik maoshlarining kamligi sababli oliy malumotga ega o‘qtuvchilar Rossiya, Turkiya yoki Qozog’istonga yuqori maosh sababli ketib qolishadi. Shaxsan o’zim Toshkent shahridagi o‘rta maktabdagi 2 yillik tajribamdan keyin shuni ayta olamanki men bilan o’sha maktabda dars bergen oliy malumotli o‘qtuvchi hozir Rossiyada idish tovoq yuvyapti.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2016-yildan buyon amalga oshirilgan

islohotlarga qaramay, umumta'lim maktablari ko'plab pedagoglar uchun yoqimsiz variant bo'lib qolmoqda. Rus tilidagi ta'lim ayniqsa talabga ega, chunki ota-onalar buni Rossiyada keljakdagi ish istiqbollari uchun foydali deb bilishadi. Bu holat o'qituvchilar sonidagi nomutanosiblikni keltirib chiqaradi, rus tilida so'zlashuvchi talabalar o'zbek tilida so'zlashadigan talabalarga nisbatan bir o'quvchiga sezilarli darajada kamroq o'qituvchi to'g'ri keladi." deydi Nargiza Uralova (Toshkentdag'i Webster universiteti yordamchi professori 2022). Bundan tashqari mamlakat maktablarida 5-sinfdan yuqori bo'lgan o'quvchilar o'zlari tanlagan yo'nalishlariga kerakli fanlardn tashqari qo'shimcha ko'pgina darslarga qatnashishga majbur. Bu esa ularga kerali fanlarga to'liq e'tibor qartishga yo'l qo'ymaydi. Shunga qo'shimcha qilib shuni aytish joizki maktab darsliklari deyarli to'liqligicha teoreyaga bog'liq bo'lib qolgan va zerikarli. Amaliy ishlar uchun yo maktabda shaoit bo'lmaydi, yoki o'qtuvchining ko'nikmalari yetmaydi yoki hammasi bo'lganda ham resusrslarning kamligi tufayli bu tajribalar faqatgina ustoz tomonidan amalga oshiriladi xolos. Bu 3 ta eng ko'zga ko'rinarli kamchiliklarni tuzatish uchun 2 ta yechim taklif qilish mumkin.

1. Mamlakatda maktablar fanlarga emas kasblarga iqtisoslashtirish va o'sha va o'shangan o'xshagan kasblarga kerakli fanlar hamda amaliyot uchun zarur bo'lган asbop anjomlar bilan taminlanishi, o'qish yo'lini tanlamagan hunarmandchilik yoki boshqa soha yo'lida ketishni afzal ko'rgan o'quvchilar an'anaviy maktablarda dunyo qarashni kengaytirish uchun ta'lim olishi va darsdan bo'sh vaqtlarida o'zlari xohlagan kasb yoki hunarni amalda o'rganish uchun biror mutaxasisiga shogirt tushishlari mumkin qilib belgilanishi.

2. Maktablardagi o'quvchilarga 7-sinfgacha o'zlari xohlagan kasbni tanlashga yordam berish hamdan kerak. Hamda 7-sinfga o'tgan o'quvchilar esa o'zlari tanlagan kasb yo'nalishida o'qishlari va qisman amaliyotga ega bo'lishlari kerak.

Mamlakat fuqarolari uchun oliy ta'lim olishda yaratilgan yengilliklar

Mustaqillik yillaridan keyin mamlakatimizda oliy ta'limda keng imkoniyatlar berildi. Yangi oliygohlar ochildi, bor bo'lgan oliygohlarimizda yangi fakultetlar ochilib kvotalar soni oshirildi. Chet mamlakatda oqishni xohlovchilar ammo to'lovlarni to'lashga mablag'i yetmadiganlar uchun esa "1997-yil 13 yanvar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Iste'dodli yoshlarning chet ellarga borib o'qishini qo'llab-quvvatlish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umid" jamg'armasini tashkil etish bo'yicha tashkiliy tadbirlar to'g'risida" Qaror qabul qildi." (*Manba: IslomKarimov.uz*). Ushbu loyiha yordamida iqtidorli o'quvchi yoshlarning chet mamlakatdagi barcha xarajatlari to'laligicha to'labberilib, keyinchalik kafolatlangan ish bilan ham ta'minlangan. Bundan tashqari mamlakatdagi oliy ta'lim markazlarida chet ellik o'qtuvchilarning ulushi ko'payib, boshqa mamlakatlarning nomdor institutlri bilan ham shartnomalar tuzilib ularning fliallari birin ketin Toshkentga kirib kela boshladi. "Birinchilardan bo'lib

“Westminster”(2002), “Mdist”(2007), “INHA” (2014) kirib kelgan.” (*Manba: Wikipedia.org*). Keyinchalik Shavkat Mirziyoyev prezidentliklaridan keyin to’lov kantraktlarini to’lash uchun imtiyozli kreditlar, xotin-qizlar va nogironligi borlar uchun magistrature ham bakalavrda o’qish uchun yengilliklar, Prezident stipendiyalari, birdaniga 5 ta oliygohga hujjat topshirish imkoniyati va buni masofadan turib online qilish imkoniyatlari berildi.

Oliy ta’limdagi kamchiliklar

Mamlakatimix hududidagi oliy ta’lim albatta yaxshi ahvolda deyish qiyin masala. Prezidentimiz tomonidan qilinayotgan islohotlarga qaramay oliygochlarni pora haligacha mavjud. Bilimsiz talaba yiqitilish o’rniga keraklicha “ko’ngildan chiqarib” berilgan sovg’alar deb imtihonlardan oson o’tib ketsa, ba’zi holatlarda o’quv mavsumi davomida yaxshi bilimga ega bo’lgan talaba ham nohaqlik qurbaniga aylanishi mumkin. Ko’pchilik oliygochlarda berilayotgan ta’lim sifati birinchi o’rinda emas deya olsak yana boshqalarida oxirgi pog’onalarda ko’ramiz. “Forma,soqol,davomat, ro’mol...” va yana shunga o’xshagan bilim olishga umuman aloqasi bo’lmagan holatlar, haftada 2-3 marta qilinadigan tadbirlar sababli talabalarni dars jarayonlaridan olib chiqib ketish ham bu bizning oliy ta’limimiz sifatiga juda katta Zarar keltiradi. Va bu muammolar mamlakatimizdagi deyarli hamma uchun aniq va ravshan.

O’qishni bitirgan talabalarning ko’pchiligi esa tajribasizligi vaji bilan ishga qabul qilinmaydi va sarson sargardon bo’ladi, oxir oqibat qayoqqadir pora evaziga ishga kiradi. Bunga asosiy muammo ham Institut vaqtida beriladigan ta’limning 75-80% holatlarda nazariyadan iboratliligidir.

3.Xulosa

Mustaqilligimizdan buyon mamlakatimiz ta’lim tizimida sezilarni o’zgarishlar amalga oshirildi, foydali qarorlar qabul qilinib uzoq muddatli loyihamar tuzilib chiqildi. Bularning barchasi 1991-yilgi ta’lim tizimimizga taqqoslaganda hozirgi ko’rsatkichlarimizni ancha yaxshilanganini ko’rsatib tursada biroq bu boshqa biz bilan bir xil rivojlanayotgan mamlakatlarga taqqoslaganda ancha sekin o’sish hisoblanadi. Masalan Qozog’istonning 2 universitetlari The Times nashri tomonidan dunyoning top 1000 universitetlari qatoriga kiritilgan. Bizning bir qancha Yurtdoshlarimizning dunyoning mashhur gigant kompaniyalari Google, Tesla, Space-X, Apple, Zarada yuqori martabalarda ishlashayotganiga, yana bir qachalari dunyoning yetakchi universitetlari Yale, Harvard, Cambridge, Oxfordda ishlab va o’qiyotganlariga qarasak demak bizning xalqimizda yaxshiga salohiytg’a yoshlar doim bo’lgan. Ammo ularning salohiyatlarini mamlakatimizda o’sirish va yaxshi natijalarga erishish haqida maxtana olmaymiz. Bu borada bizning yo’lga qo’yayotgan tizimlarimiz doim ham o’zini oqlamayapti.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. "The times higher education" jurnali. 2022-yil.
3. "Vikipediya.org", O'zbekiston Respublikasida Xalqara universitetlar ochilgan yillari 2024-yil 21-iyul.
4. "CABAR.Asia" Niginakhon Uralova maqolasi 2022-yil.
5. "Medium.com" Rashid Tojiboyev Sobir o'g'li maqolasi 2016-yil.